



«QALMOQQIR» KON BOSHQARMASI

Faoliyat turi:

Qazilma boyliklarini qazib olish. «Qalmoqqir» konining rudalari misporfirli hisoblanadi. Shtokverk chegarasida mis va yo'ldosh komponentlarning taqsimlanishi birtekis emas. Qalmoqqir koni rudalarining sanoat uchun asosiy boyligini ularning tarkibida mis, molibden, qimmatbaho metallar hamda oltingugurt, selen, tellur, reniylar borligi tashkil etadi.

Sariq Cho'qqi konining rudalari Qalmoqqir koni rudalariga o'xshash bo'lib, faqat misning ko'pligi bilan ajralib turadi.

Direktor: Isaqov Muxamadamin Mamadumarovich

E-mail: info@agmk.uz

ANGREN KON BOSHQARMASI

Faoliyat turi:

Qazilma boyliklarini qazib olish va qayta ishlash natijasida boyitilgan konsentrat olish. Minerallarga boy tarkibi bo'yicha kon oz va o'rtacha sulfidli rudalning oltinsulfid-kvars tuzilishiga kiradi. Rudalarning asosiy foydali komponentlari – qimmatbaho metallar, yo'ldosh komponentlari – mis, vismut, selen, tellur. Angren KB tarkibiga Qizil olma, Ko'chbuloq koni, Oltin saralash fabrikasi kiradi.

Direktor: Bayazitova Irina Vladimirovna

E-mail: info@agmk.uz

CHODAK KON BOSHQARMASI

Faoliyat turi:

Qazilma boyliklarini qazib olish va qayta ishlash natijasida qimmatbaho metallarni olish. Kon boshqarmasi tarkibiga Pirmirab, Guzaksoy konlari va boyitish fabrikasi kiradi.

Direktor: Abdulaxmetov Axmadjon Abdulmajitovich

E-mail: info@agmk.uz

“XONJIZZA” KON BOSHQARMASI

Faoliyat turi:

Polimetall rudalarni qazib olish va qayta ishlash. Tarkibiga shaxta va boyitish fabrikasi kiradi. Mahsulotlari qo'rg'oshin, mis va rux konsentratlari hisoblanadi.

Direktor: Xo'jamurotov Botir Ravshanovich

E-mail: info@agmk.uz

KOVULDI KONI

Faoliyat turi:

Qazilma boyliklarini qazib olish. Tarkibiga kon va rudatayyorlash uchastkasi kiradi. Mahsuloti kvars rudasi hisoblanadi.

Direktor: Rustamov Otabek Il'xomjonovich

E-mail: info@agmk.uz

UCH-QULOCH KONI

Faoliyat turi:

«Uchquloch» koni tarkibiga polimetall rudalar koni va qurilish materiallari kareri kiradi. 1996 yildan boshlab kon norentabel ishlagani uchun konservatsiyalangan.

Direktor: Berkinov Aziz Qodirovich

E-mail: info@agmk.uz

SHAXTA QURILISH BOSHQARMASI

Faoliyat turi:

Yer osti kon-kapital ishlarini amalga oshirish investision loyihalar ro'yxatida ko'zda tutilgan ob'ektlarni, shaxta usti bino va inshootlarni ishga tushirish. Yangi er osti konlari va ob'ektlari qurilishini ta'minlash, kon ishlarida zamonaviy texnologiyalarga o'tishni ta'minlash.

Boshliq: Abdullayev Zakirjon Abduxanovich

E-mail: info@agmk.uz



MIS BOYITISH FABRIKASI

Faoliyat turi:

Asosiy faoliyati Qalmoqqir va Sariq-cho'qqi konlarining sulfidli mis-molibden rudalarini qayta ishlash va mis-molibden konsentrantini hamda molibden yarim tayyor mahsulotini olish. Ushbu konsentrantlardan rangli metallardan tashqari qimmatbaho noyob metallar olinadi.

Direktor: Sidikov Ravshan Mirzabekovich

E-mail: info@agmk.uz

2 - MIS BOYITISH FABRIKASI

Faoliyat turi:

Asosiy faoliyati Qalmoqqir va Sariq-cho'qqi konidan sulfidli mis-molibden rudalarni qayta ishlab, jamoaviy mis-molibden konsentrantini olish. Bundan tashqari mis eritish zavodining shlaklarini qayta ishlash asosida shlakli mis konsentrantini olish.

Boshliq: Mirahmedov Hasan Turgunovich

E-mail: info@agmk.uz

ANGREN OLTIN SARALASH FABRIKASI

Angren OSF Angren kon boshqarmasi tarkibiga kiradi.

Hozirgi vaqtdagi asosiy texnologik jarayonlar quyidagilar hisoblanadi:

- rudani ikki bosqichda 60% klassgacha maydalash - 0,074 mm;
- oltintarkibli konsentrat olib flotasion boyitish;
- konsentratni quyultirish;
- konsentrat filtrasiyasi;
- kekni (konsentratni) quritish.

Fabrikaning maydalash bo'linmasi o'z-o'zidan maydalovchi MB-50x18, MMS50x23 tegirmonlari va MShS-32x31 va MShS-32x45 sharsimon tegirmonlari bilan jihozlangan. Flotasion bo'linma kamerasing hajmi 16m³ bo'lgan FPM-16

flotomashinalari bilan, quyultirish va filtrasiya bo'linmasi S-15, S-9 quyultirgichlari va Du-50 vakkum-filtri, SB-1,6x8,0 quritish barabani bilan jihozlangan.

Olingan konsentrat, affinaqli oltin va kumush olish uchun, avtomashinalarda Olmaliq shahridagi Mis eritish zavodiga yuboriladi.

Ishlab chiqarish chiqindilari gidrotransportda chiqindixonaga yuboriladi. Chiqindixonona 1974 yilda qurilgan va OSF sanoat maydonidan 3,1 km masofada joylashgan. Chiqindixonaning boshlang'ich sig'imi 3,2 mln.m³ tashkil etar edi, to'sib turuvchi to'g'onning balandligi 55,0 m (957m. belgi), qirrasini bo'yicha eni 6 m. Pulpa fabrikadan to chiqindixonagacha uchta po'lat quvur o'tkazgich bo'ylab (1 ishchi, 2ta zahira), 4ta pulpa nasosli stansiyalar yordamida uzatiladi. 1989 yilda chiqindi xo'jaligini texnik jihatdan qayta qurollantirish amalga oshirildi - beshinchi pulpa nasos stansiyasi qurildi va 21 m to'g'on bitkazildi (978 m. begligacha), bunda chiqindixonaning sig'imi 6,8 mln.m³ gacha oshdi.

CHODAK OLTIN SARALASH FABRIKASI

Chodak oltin saralash fabrikasi 1970 yilda ishga tushirilgan bo'lib, u yiliga 180 ming tonna oltintarkibli ruda qazib olish va ularni qayta ishlash quvvatiga ega. Fabrikada Pirmirob va Guzoksoy konlarining oltintarkibli rudalarini qayta ishlaydi.

Texnologik sxemasi 3 bosqichli maydalashdan, rudalarni ikki bosqichda klassifikatsiyalash bilan yopiq tsiklda bir bosqichda kukunlashdan, gidrosiklon to'kilmasini quyushtirishdan, quyushtirilgan mahsulotni tsiyanlashuvi, oltintarkibli eritmalarni filtrlashdan, qimmatbaho metallarni ruxli changga namlash va ruxli cho'kindilarni quritishdan iborat.

Maydalash bo'linmasi maydalashning 1- bosqichida SMD 900x1200 linjli maydalagich, ikkinchi maydalash bosqichida KSD-1750 konussimon maydalagich va uchinchi maydalash bosqichida KMD-1750 konussimon maydalagichlari bilan jixozlangan. Maydalash bo'linmasida MshS 2,7x3,6 sharsimon tegirmonlari o'rnatilgan. Tsianlashtirish bo'linmasida SD-15, S-15 quyushtirgichlari va PPM-8a pnevmomexanikaviy agitatorlar bilan jihozlangan. Namlash ishlari "Meril Krou" namlash qurilmalarida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish chiqindilarini suyuq xlor bilan zararizlantirgandan so'ng chiqindilar omboriga yuboriladi.

XONJIZZA BOYITISH FABRIKASI

Xonjizza boyitish fabrikasi Xonjizza koni tarkibiga kiradi.

Xonjizza boyitish fabrikasi tarkibiga maydalash bo'limi, mis-qo'rg'oshin konsentarti flotasiyasi seleksiyasi, mis, qo'rg'oshin va rux konsentratlarini quyiltirish bo'limi va reagentlar tayyorlash kopusi kiradi.

Texnologik sxemada rudani uch bosqichli maydalash jarayoni ko'zda tutilgan. 7580% gacha maydalangan - 0,074 mm sinf rudalar jamoaviy mis-qo'rg'oshin flotasiyasiga tushadi, mis-qo'rg'oshin chiqindilari rux flotasiyasiga yo'naltiriladi.

Flotasiyaning mis-qo'rg'oshin sikli o'z ichiga sikllararo, asosiy, nazorat operatsiyasi (amaliyoti)ni va MShS 2,7x3,6 tegirmonida dastlabki maydalashli ikki xomaki konsentratni qayta tozalash sikllarini oladi. Rux sikli ham shuningdek asosiy flotasiya, nazorat va ikki qayta tozalash amaliyotlaridan tashkil topgan.

Jamoaviy mis-qo'rg'oshin konsentratni desorbsiya amaliyoti, yuvish va quyultirishdan so'ng mis seleksiyasiga yo'naltiriladi. Quyultirishdan keyin mis flotasiyasi chiqindilari qo'rg'oshin seleksiyasiga kelib tushadi. Qo'rg'oshin flotasiyasi chiqindilari qo'rg'oshin va misni qo'shimcha maydalash uchun mis-qo'rg'oshin sikliga yo'naltiriladi.

Mis va rux konsentratlari suvchizlantirilgandan so'ng nomdosh metallurgiya bo'linmalariga jo'natiladi, qo'rg'oshin konsentratlari esa vaqtinchalik omborga joylashtiriladi.

Fabrika chiqindilari - ag'darmalar chiqindilari oqizish yo'li bilan chiqindi saqlash omboriga jo'natiladi.



MIS ERITISH ZAVODI

Faoliyat turi:

Konsentratlar va tarkibida mis hamda qimmatbaho metallar bo'lgan sanoat xom ashyosini qayta ishlash va tayyor mahsulot olish. Mis eritish zavodi kombinatning mis zanjiridagi so'nggi yakunlovchi bo'gini hisoblanib, uning tarkibiga o'nta asosiy sexlar kiradi. Asosiy mahsulotlari: rafinatsiyalangan mis, affinajlangan qimmatbaho metallar, texnik selen, texnik tellur, oltingugurt kislotasi, mis kuporosi, SBA, ammoniy perrinati, kuydirilgan molibden sanoat mahsuloti va emallangan mis simlaridir.

Direktor: Vaqqosov Baxtiyor Abduraimovich

E-mail: info@agmk.uz

RUX ZAVODI

Faoliyat turi: Rux konsentratini va tarkibida rux bo'lgan sanoat xom ashyosini qayta ishlaydi. Asosiy mahsulotlari metalli rux, metalli kadmiy, oltingugurt kislotasi, rux kukuni, RAM quyilmasi, rux sulfati hamda mis eritish zavodi uchun mis klinkeri va mis kekini ishlab chiqaradi.

Direktor: Utanov Farrux Djabarovich

E-mail: info@agmk.uz



JIZZAX SEMENT ZAVODI

"Olmaliq KMK" AJ oq va umumiy qurilish portlandsementi ishlab chiqaruvchi Sement zavodi 2014 yilda Jizzax viloyatida tashkil etilgan.

PSB I-1 500/42,5 oq portlandsement bo'yicha zavodning loyihaviy quvvati Yiliga 350 000 tonna, SEM I 32.5 N umumiy qurilish portlandsementi - yiliga 760 000 tonnani tashkil etadi.

Ichki bozorga sotishga mo'ljallangan:

- oq portlandsement - 3%, umumiy qurilish portlandsementi - 86%. Eksportga sotish mo'ljallangan;
- oq portlandsement - 97%, umumiy qurilish portlandsementi - 14%.

Chiqarilayotgan sement O'z DSt 761-96, GOST 31108-2003, GOST 30515-97 me'yoriy hujjatlarga mos keladi. **Maqsad:**

- eksport hajmlarini pasaytirmasdan O'zbekistonda sementga o'sib borayotgan ehtiyojini qoniqtirish;
- portlandsement chiqarish bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish;
- sementning yangi turini chiqarilishini o'zlashtirish;
- valyuta mablag'larini tejash maqsadida, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishini mahalliy lashtirish;
- eksport salohiyatini yanada kengaytirilishini va qo'shimcha valyuta mablag'larining kelib
- tushishini ta'minlash maqsadida, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni chiqarish.

Qo'llanilish sohasi:

Portlandsement va uning turlari - zamonaviy qurilishda eng ko'p tarqalgan sement turlaridan biri. Portlandsement klinkerini gips bilan yupqa maydalash, shuningdek maxsus qo'shilmalar qo'shish orqali olinadigan gidravlik biriktiruvchi modda portlandsement deb ataladi.

Umumiy qurilish portlandsementi asosan temirbeton ishlari uchun qo'llaniladi. Shuni qayd etib o'tish joiz-ki, portlandsement penobeton, beton tayyorlashda va umumiy qurilish ishlarida, shuningdek yo'lakchalar va yo'l plitalarini terishda keng foydalaniladi.

Oq sement toza ko'rinishda qo'llanilishga tayyor bo'lgan yakuniy mahsulot hisoblanmaydi, bu turli xil qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan xom ashyo komponenti bo'lib, quyidagi sohalarda qo'llaniladi:

Quruq qurilish aralashmalarini ishlab chiqarishda:

- ichki va sirtqi ishlar uchun shpaklevka va suvoqchilik aralashmasi,
- rangli terish uchun mo'ljallangan qorishma, pol uchun o'z-o'zidan tekislanadigan qorishmalar,
- qurilish kimyosi (plita yelimlari va choklar uchun ishqalab tekislaydigan qorishma);

Bbeton mahsulotlarini ishlab chiqarishda:

- sun'iy qoplash toshlari va g'ishtlari,
 - terrazitli pol va qoplash plitalari, □
 - yo'lakchalar plitalar va bordyurlar, □
- kichik arxitektura shaklidagi buyumlar.

Zavodning afzalliklari:

Loyiha stretegiyasini ishlab chiqishda, korxonalariga o'z oldilariga qo'yilgan maqsadlarni, loyihalarni amalga oshirishda, investision kapitalga mag'bul daromadlar olish uchun muvaffaqiyatlarga erishish uni amalga oshirish imkoniyatlarini beradigan turli omillar majmuini tashkil etuvchi ma'lum sharoitlar bilan tavsiflanadigan imkoniyatlarni hisobga olish zarur.

Mazkur zavodni tashkil etish strategiyasi - qurilish materiallari sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ularni ishlab chiqarishni sifatli, raqobatbardosh va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta'minlaydigan zamonaviy progressiv jihozlar bilan jihozlash borasidagi bosh maqsadga javob beradi.

Mavjud ohaktosh va sariq tuproqli konlardan, shuningdek ichki bozorda ham, tashqi bozorda ham sementga bo'lgan mavjud barqaror ehtiyoj foydalanish samaradorligini oshirish zavodni tashkil etish uchun dastlabki shart-sharoitlar bo'ldi.

Sement zavodi quyidagi afzalliklarga ega:

- mos keladigan xom ashyo materiallarining isbotlangan zahiralari (ohkatosh va sariq tuproq konlari);
- xom ashyo yetkazmalarining foydali logistikasi;
- zamonaviy jihozlarni joriy etish hisobiga barqaror yuqori sifat O'zbekistonda oq portlandsementga bozordagi monopoliya;
- Oq sement, shuningdek umumiy qurilish sementi ishlab chiqarish imkoniyatlari hisobiga □ bozor kon'ekturasida javob berish bo'yicha keng imkoniyatlar.

Texnologiya va jihozlar:

Sement zavodida texnologik jarayoni yuqori darajada avtomatlashtirilgan dunyo ishlab chiqaruvchilaridan zamonaviy jihozlar o'rnatilgan.

Sement ishlab chiqarishning quruq usuli zamonaviy texnologiy hisoblanadi va u an'anaviysiga qaraganda bir qator afzalliklarga ega. Masalan, elektr energiyasi iste'molini 2 baravarga, yoqilg'i iste'molini deyarli 1,5 baravarga qisqartirish. Ushbu texnologiya hozirgi vaqtda portlandsement ishlab chiqarish uchun eng samarali usul hisoblanadi.

Sement zavodining noyoblighi shunda-ki, oq va umumiy qurilish portlandsementi yiliga 760 ming tonna quvvatga ega bo'lgan bir texnologik liniyada, yoki yiliga 350 ming tonna oq sement ishlab chiqarilishi mumkin.

Ishlab chiqarish majmui uchta karerli konchilik sexidan va sement ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish-texnologik liniyalardan iborat.

Xom ashyo, mahsulotlar, yoqilg'i, suv sifatini nazorat qilish monitoringi va nazorati uchun barcha kerakli jihozlar bilan ta'minlangan laboratoriya mavjud.

Laboratoriyada sinovlar o'tkaziladi, EN 197ga binoan jarayon va yakuniy mahsulot nazorati tashkil etilgan.

Sifat nazorati:

Sementi ishlab chiqarish jarayonida quyidagilar nazorat va sinovlar o'tkaziladi:

- barcha tiplar va turkumlarning siqishga bo'lgan pishiqligi;
- bug'lantirilgandagi samaradorlik ko'rsatgichlari; □ qotishning boshlanish va tugash vaqti;
- maydalanishining yupqaligi va solishtirma yuzasi;
- yolg'on qotish alomatlari;
- tabiiy radionuklidlar Aef faolligining solishtirma samaradorligi; □ absolyut shkala foizlarida oqlik darajasi (oq portlandsement uchun).

Nazorat va sinov zavod laboratoriyasida namunalar tanlash uslubi bo'yicha bajariladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini ta'sinlash maqsadida, zavod keyinchalik ISO 9001 tizimi bo'yicha keyinchalik sifat olish uchun zarur bo'ladigan kimyoviy tahlil va fizika-mexanikaviy sinovlar o'tkazilishini ta'minlab beruvchi Shveysariyaning "Termo Fisher", Germaniyaning "Inolab", Turkiyaning "Atom teknik" yetakchi kompaniyalarining jihozlari bilan jihozlangan.

Zavodning tahliliy laboratoriyasi O'zbekiston Respublikasi "O'zstandart" Agentligi tomonidan attestasiyadan o'tkazilgan.

Direktor v/b: Niyatov Nurmuhamat Abduganievich

E-mail: info@agmk.uz



SANOAT TEMIR YO'LLARI TRANSPORTI BOSHQARMASI

Faoliyat turi:

Kombinat yuklarini tashish. Tarkibi to'rtta temir yo'l sexi, beshta xizmat va 243,491 km temir yo'l izlaridan iborat bo'lib, shundan 221,79 km elektrlashtirilgan.

Boshliq: Qurbonov Bunyod To'lqinovich

E-mail: info@agmk.uz

AVTOMOBIL TRANSPORTI BOSHQARMASI

Faoliyat turi:

Kombinat ishchilarini, xom ashyolarni, materiallarni va tayyor mahsulotlarni tashish. Avtomobil transporti boshqarmasi tarkibiga oltitta avtobaza, traktor parki, avtota'mirlash uchastkasi va karer avtoyo'llarini ta'mirlash uchastkasi kiradi.

Boshliq: Alimov Sobir Baymakovich

E-mail: info@agmk.uz